Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQQA IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadriddin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIQI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	



УДК 336.7

PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQUARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

Nasimov Baxtiyor Vasiyevich

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti birinchi prorektori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
ORCID: 0009-0008-4509-3817

Annotatsiya. Mazkur maqolada paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralari boshqarishning xorijiy tajribalari tahlil qilinadi. Rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan zamonaviy logistika tizimlari, raqamli boshqaruv usullari hamda zahiralarni optimallashtirish mexanizmlarining samaradorligi o'rganiladi. Shuningdek, xorijiy tajribani mahalliy paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatiga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va klasterlar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: paxta-to'qimachilik klasteri, ishlab chiqarish zahiralari, xorijiy tajriba, logistika, zahiralarni boshqarish.

Abstract. This article analyzes foreign experience in managing production inventories in cotton-textile clusters. The effectiveness of modern logistics systems, digital management methods, and inventory optimization mechanisms applied in developed countries is examined. In addition, the possibilities of adapting international experience to the activities of domestic cotton-textile clusters are considered. The research findings contribute to reducing production costs and increasing the competitiveness of clusters.

Key words: cotton-textile cluster, production inventories, foreign experience, logistics, inventory management.

Аннотация. В данной статье анализируется зарубежный опыт управления производственными запасами в хлопково-текстильных кластерах. Рассматривается эффективность современных логистических систем, цифровых методов управления и механизмов оптимизации запасов, применяемых в развитых странах. Кроме того, оцениваются возможности адаптации международного опыта к деятельности отечественных хлопково-текстильных кластеров. Полученные результаты могут способствовать снижению производственных затрат и повышению конкурентоспособности кластеров.

Ключевые слова: хлопково-текстильный кластер, производственные запасы, зарубежный опыт, логистика, управление запасами.

KIRISH

To'qimachilik sanoati dunyoda millionlab ish o'rinlarini ta'minlaydigan eng yirik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohani rivojlantirish ko'plab mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti (YalM)ga sezilarli hissa qo'shib, xalqaro savdoning kengayishiga xizmat qiladi. So'nggi yillarda to'qimachilik bozori hajmi barqaror sur'atlarda o'sib bormoqda. Jahon banki bashoratlariga ko'ra, mazkur bozor yillik o'rtacha 8,7 % o'sish sur'ati bilan 2024-yildagi 640,43 mlrd dollar darajasidan 2025-yilda 696,16 mlrd dollargacha yetadi [1]. To'qimachilik sanoatining tobora baynalmilallashuvi turli mamlakatlardagi korxonalar uchun logistika zanjirlari, ta'minot muddatlari va siyosiy tavakkallarni hisobga olish zaruratini yuzaga keltirmoqda, bu esa ishlab chiqarish zahiralari boshqarish tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish yo'nalishida keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son¹ "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son² "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 26-yanvardagi PF-23-son³ "Paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonlari hamda sohaga

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.01.2023 yildagi PF-2-son <https://lex.uz/uz/docs/-6351331>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/docs/-5030957>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.01.2023 yildagi PQ-23-son <https://lex.uz/ru/docs/-6373130>



oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazkur yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarning samarali ijrosi sanoat tarmoqlari, xususan, to'qimachilik sohasida faoliyatni baholash va boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zahiralarni boshqarishning o'ziga xos jihatlari bo'yicha ayrim mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlarini ko'rib chiqamiz. V. P. Kodatskiy tadqiqotlarida zahiralarni boshqarish korxonani boshqarishning umumiy tizimida mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralishi zarurligi ta'kidlanadi [3].

Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish strategiyasini o'rgangan A. Sh. Axmadovning fikricha, korxonada zahiralarni shakllantirish jarayonida maqsadlar to'qnashuvi yuzaga keladi. Xususan, moliya xizmati sotuvni yaxshilash va mablag'larning aylanuvchanligini oshirish maqsadida zahiralarning past darajasini qo'llab-quvvatlashni afzal ko'rsa, ishlab chiqarish bo'limi barqaror va uzluksiz yuklama ta'minlanishi uchun yetarli miqdordagi zahiralarni talab qiladi [4]. Mazkur manfaatlar uyg'unligini ta'minlash, umuman olganda, korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda zahiralarning ortiqcha hajmi natijasida aylanma kapitalning samarasiz muzlab qolishining oldini olish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Zahiralarni sotib olish va ularni saqlab turish bilan bog'liq xarajatlar ko'pincha zahiralarning o'z qiymatiga yaqin bo'lib, bunday holat zahiralarning aylanuvchanlik davrini uzaytiradi. Shu sababli rahbariyatning asosiy e'tibori ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlagan holda zahiralarga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini optimallashtirishga qaratilishi lozim.

Xom ashyo va materiallarni xarid qilish hamda ularni sarflashni rejalashtirish korxona imkoniyatlaridan maksimal darajada samarali foydalanish maqsadida moliyaviy, axborot va moddiy oqimlarni oqilona rejalashtirish hamda nazorat qilishga asoslanadi.

N. A. Xromix ta'kidlaganidek, moddiy-texnik resurslarni samarali boshqarish ulardan foydalanishni chuqur tahlil qilish va optimallashtirish choralari amalga oshirmasdan turib mumkin emas. Shu bois ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi barcha korxonalar tovar-moddiy zahiralarni, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni o'z ichiga olgan aylanma mablag'lar holatiga doimiy e'tibor qaratishlari zarur [5].

Zahiralarning turli-tumanligi masalasiga to'xtalar ekan, N. M. Mo'minova shunday ta'kidlaydiki, "turli vaziyatlarda va turli sabablar bilan vujudga keladigan zahiralarning har xil turlari umumiy muammo bilan birlashadi. Ushbu muammo buyurtma qiymatini va turdosh ta'minotlar orasidagi vaqt intervallarini o'zaro optimallashtirish, shuningdek, zahiralarni boshqarish modellarining iqtisodiy parametrlarini belgilash bilan bog'liqdir" [6]. Bundan xulosa qilish mumkinki, zahiralarni boshqarish modellarining eng muhim parametrlari zahira tarkibiga kiruvchi materiallar va resurslarga bo'lgan talab intensivligi bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda korxonalarda zahiralarni boshqarishni alohida vazifa sifatida ko'rib chiqishdan biznes-jarayonlarni majmuaviy boshqarishga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda. O. N. Zueva logistik biznes-jarayonni "tovar va unga yo'ldosh bo'luvchi oqimlarni boshqarish orqali firmaning logistik strategiyasi yoki iste'molchilar tomonidan belgilanadigan natijaga kompaniya resurslarini transformatsiyalovchi operatsiyalar va funksiyalarning o'zaro bog'langan majmuasi" sifatida tavsiflaydi [7].

Logistik biznes-jarayonning asosiy maqsadi ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchiga tovarlarni o'z vaqtida va samarali yetkazib berishni ta'minlashdan iborat. Ushbu jarayon ta'minotni rejalashtirishdan boshlanib, xom ashyo va materiallarni xarid qilish, ularni korxona omboriga joylashtirish, ichki ishlab chiqarish sexlari o'rtasida tashish, ishlab chiqarish va ombordagi zahiralarni monitoringi, shuningdek, zahiralarni zarur hajmgacha to'ldirish bo'yicha hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi.

V. I. Malyukning fikricha, "xarajatlarni optimallashtirish ishlab chiqarish maydonchalari, ta'minot zanjirlari va logistik infratuzilmani loyihalashtirishda asosiy maqsad hisoblanadi. Bu, ayniqsa, ishlab chiqarish quvvatlarini yirik korxonalarda yoki kam sarfli bir nechta mamlakatlarda konsentratsiyalash orqali zahiralarni va ortiqcha quvvatlarni kamaytirishga intiladigan to'qimachilik sanoati uchun xosdir" [8].

Shu nuqtai nazardan, paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarni boshqarishning xorijiy tajribalarini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'lib, uning asosiy elementlari olimlar qarashlariga tayangan holda maqolaning asosiy qismida atroflicha ko'rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarni boshqarishning xorijiy tajribalari bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy jihatdan baholash, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, ma'lumotlarni guruhlash, shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo miqyosida to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi bo'yicha yetakchi o'rinni egallovchi Xitoy to'qimachilik tarmog'i korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari boshqarish tajribasi tahlil qilinadi.


D. Szyunchji ta'kidlaganidek, "Xitoyning to'qimachilik sanoati dunyoda eng to'liq sanoat zanjiriga va juda yuqori qayta ishlash darajasiga ega bo'lib, klasterlarni rivojlantirish modeli tarmoq raqobatbardoshligining ortishiga xizmat qildi" [9].

To'qimachilik mahsulotlari sifatiga bo'lgan talablarning ortib borishi bilan yigiruv uskunolari ham raqamlashtirish yo'nalishida jadal rivojlanmoqda. Tarmoq ekspertlari fikricha, to'qimachilik klasterlaridagi yigiruv uskunolari bitta qurilmada sun'iy intellektning bir nechta texnologiyalarini uyg'unlashtirib, yigirish jarayonining barcha texnologik bo'g'inlari o'rtasida boshqaruvchisiz konvergensiyaning ta'minlanmoqda.

So'nggi yillarda Xitoy to'qimachilik korxonalarida paxta yigirish uskunolari unumdorlik, ish tezligi, avtomatlashtirish, uzluksizlik va axborotlashtirish darajasini oshirish yo'nalishida izchil takomillashib bormoqda. Faoliyati robotlar tomonidan amalga oshiriladigan "aqlli fabrikalar" boshqaruv va monitoring funksiyalarini hamda doimiy takomillashuvni ta'minlaydigan internet-platformalarga tayanadi.

To'qimachilik klasteri korxonalarida yigiruv uskunalarining vazifalariga operativ aniqlash, avtomatik nazorat va tartibga solish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik parametrlarni tarmoqli monitoring qilish kiradi. Bunday konfiguratsiya yigiruv ishlab chiqarishini yuqori darajada avtomatlashtirishga erishish, sodda va takrorlanuvchi qo'l operatsiyalarini aniq mexanik avtomatik harakatlar bilan almashtirish imkonini beradi. Natijada sun'iy intellekt asosida boshqarish va masofadan turib diagnostika qilish Xitoy to'qimachilik tarmog'ini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda.

Xitoydagi to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralari boshqarishda yadro element sifatida uch o'lchamli avtomatlashtirilgan omborlarga ega sexlarning logistik tizimi qo'llaniladi (1-rasm).



1-rasm. Xitoy to'qimachilik klasteri korxonalarida yadro sifatida avtomatlashtirilgan uch o'lchamli omborga ega bo'lgan sexning logistik tizimi [10].



Germaniya to'qimachilik sanoati rivojlanishning yuqori darajasiga ega. "Statista" nemis statistik portalining ma'lumotlariga ko'ra, Germaniyada to'qimachilik sanoatining yillik aylanmasi 12,3 mlrd yevroni tashkil etadi. Mamlakat to'qimachilik sanoati raqamlashtirishning tarmoqqa tobora ortib borayotgan ta'siri ostida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Bunday logistik sxema ishchi kuchiga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish orqali logistik jarayonlarning yetarli bo'lmagan samaradorligi bilan bog'liq muammolarni hal etadi, umumiy samaradorlikni oshiradi hamda bir vaqtning o'zida korxonalarning transformatsiyalashuvi va modernizatsiyalashuviga ko'maklashib, ishlab chiqarish sifati va hajmining izchil yaxshilanishini ta'minlaydi.

Korxonaning umumiy logistik tizimi biznes-platformalar va yirik sanoat ma'lumotlari bilan integratsiyalashgan bo'lib, bozor talabini yanada aniqroq bashorat qilish va baholash imkonini beradi. Xitoyda ta'minotchilar bilan hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, o'zgaruvchan bozor ehtiyojlariga moslashish imkoniyati bilan ta'minot zanjirlariga ularni integratsiyalash amaliyoti keng qo'llanilmoqda.

To'qimachilik korxonalarida zahiralarni boshqarish jarayonida ishlab chiqarish chiqindilarini qisqartiruvchi intellektual datchiklardan foydalaniladi. Bu qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilar miqdorini kamaytirishga, shuningdek, odatda utilitatsiya qilinadigan, biroq qimmat bo'lgan keraksiz materiallar hajmini qisqartirishga imkon beradi. Ishlab chiqarish oqimlarida mos datchiklar va tizimlarning qo'llanilishi resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, datchiklardan foydalanilganda katushkalardagi yigiruv ipi miqdori aniq hisoblab boriladi, natijada ishlab chiqarish chiqindilari minimallashtiriladi.


Bundan tashqari, to'qimachilik sanoatida ma'lumotlarni to'plashning samarali jarayoni yopiq siklli iqtisodiyot sharoitida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahsulot darajasida ma'lumotlarni uzluksiz yig'ish imkonini beruvchi intellektual yechimlar ekologik dizayn, EPR tizimi hamda barqaror mahsulotlarga qo'yilayotgan Yevropa Ittifoqining rivojlanib borayotgan ekologik talablari bilan uyg'un holda sohada faoliyatni soddalashtiradi.

Germaniya to'qimachilik sanoatida chiqindilarni qisqartirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish qonunchilikda belgilangan rag'batlantirish choralari asosida tobora muhim ustuvor yo'nalishga aylanib bormoqda.

Germaniya to'qimachilik tarmog'ida yopiq ishlab chiqarish va ta'minotning shaffof zanjirlari raqobatning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Masalan, buyumni tayyorlash jarayonida mato sarfini optimallashtirish imkonini beruvchi maxsus dasturiy ta'minotdan foydalaniladi. Bu, bir tomondan, iqtisodiy ustunliklarni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, atrof-muhitni muhofaza qilishga faol hissa qo'shadi. Mazkur yondashuv atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan chiqindilar miqdorining kamayishiga olib keladi.

To'qimachilik tarmog'idagi nemis korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarni boshqarishda vaqt tejatlashini inobatga olgan holda xom ashyo va materiallarni yetkazib berishni avtomatik optimallashtiruvchi ishlab chiqarish, transport va ishchi marshrutlari qo'llaniladi. Raqamli texnologiyalar to'qimachilik tarmog'i korxonalariga zahiralarni boshqarishda, ekologik yuklamani kamaytirishda hamda ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishni optimallashtirishda samarali yordam beradi. Shu sababli tarmoqdagi deyarli barcha korxonalar hozirgi kunda raqamli texnologiyalarga izchil o'tmoqda (2-rasm).

Qayta ishlash



2-rasm. Germaniya to'qimachilik korxonalaridagi ta'minotning yopiq zanjiri konsepsiyasi⁴.

Siemens Digital Enterprise kompaniyasi mutaxassislari IoT raqamli texnologiyalari asosida aqlli datchiklardan foydalanib intellektual tizimni yaratdilar. Ushbu tizim yordamida korxonadagi barcha ishlab chiqarish zahiralari harakatining barcha bosqichlarini nazorat qilish imkoniyati yuzaga keladi. Tizimdan foydalanish boshqaruvchilarga ombordagi operatsiyalarni optimal tarzda amalga oshirish, xatoliklar miqdorini kamaytirish hamda biznes-jarayonlarni samarali optimallashtirish imkonini beradi.

Germaniyaning ayrim to'qimachilik korxonalarida joriy etilgan "raqamli egizaklar" texnologiyasi ombor ishini samaradorligini pasaytiruvchi tig'iz yuklamalarni hamda ishlab chiqarish zanjiridagi muammoli jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

4 Tadqiqotlarga asoslanib, muallif tomonidan tizimlashtirilgan.




Fransiya to'qimachilik korxonalarida ham raqamlashtirish elementlari keng qo'llanilmoqda. Xususan, ishlab chiqarish zahiralari boshqarishda "doimiy zahiralarni tizimi"dan foydalaniladi. Ushbu tizim zahiralarning rejalashtirilgan va haqiqiy miqdorini tekshirish jarayonini o'z ichiga olib, materiallarga buyurtma berilganda, ishlab chiqarish uchun zahiralarni ajratilganda yoki tayyor mahsulot sotilganda zahiralarni bazasini har safar avtomatik ravishda yangilab boradi.

Fransuz to'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari boshqarishda 3D modellashdan foydalanish tajribasi ham alohida e'tiborga molikdir (3-rasm). 3D modellash saqlash konfiguratsiyasini optimallashtirish, ya'ni omborda zahiralarni joylashtirishning eng maqbul variantlarini aniqlash orqali izlash va olish vaqtini minimallashtirishga yordam beradi. Shuningdek, u ombor ichida zahiralarni joydan joyga ko'chirishning optimal marshrutlarini belgilash, saqlash va joylashtirishdagi mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda yuklash-tushirish jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. 3D tasvirlar yordamida robotlashtirilgan liniyalar faoliyati samarali tashkil etiladi.

Dasturiy ta'minot vositalari orqali 3D tasvirlarni qayta ishlash jarayonida omborda faoliyat yurituvchi robotlar vazifalarni bajarishda predmetlarni erkin ushlab olish bilan cheklanmay, balki qat'iy belgilangan shakl va o'lchamdagi obyektlarni tanlab ushlaydi. Bunda ular 3D formatda predmetni ushlab olishning eng mos pozitsiyasini aniqlab, robotlar tomonidan bajarilishi uchun mos buyruqlarni oladi.

Zahiralarning davriy tekshirib turilishi, ya'ni barcha zahiralarni va materiallarni hisobining aniq yuritilishi raqamlarning ishonchli nazorat qilinishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Zahiralarni inventarizatsiyasi bunday boshqaruv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uzilishlarni cheklash uchun har chorakda yoki har yili o'tkaziladi [8].

AQShda to'qimachilik korxonalarida zahiralarni boshqarishda qator ilg'or usullar qo'llaniladi. Xususan, "raqamli egizaklar" texnologiyasiga asoslangan logistik modellashdan foydalanish qiziqarli tajriba sifatida namoyon bo'lib, buning uchun real ombor operatsiyalari va rejalashtirish jarayonlarining virtual nusxasi yaratiladi (3-rasm).



3-rasm. Fransuz korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari boshqarishda 3D modellashdan foydalanish⁵.

5 Tadqiqotlarga asoslanib, muallif tomonidan tizimlashtirilgan.



Sun'iy intellekt raqamli egizakni tahlil qilish, muammoli jihatlar va samarasizliklarni aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Keyinchalik ishlab chiqarish bo'yicha menejerlar ushbu ma'lumotlarni tahlil qilib, omborning ehtimoliy yangi konfiguratsiyalarini yaratishda foydalanadilar. Bunda bir nechta modellar hisoblanishi mumkin, biroq sinov jarayonida optimal parametrlarga eng mos keladigani tanlab olinadi. Shundan so'ng tanlangan ombor konfiguratsiyasi real sharoitda va aniq ishlab chiqarish zahiralari bilan amaliyotga joriy etiladi.

Ombor va logistika jarayonlarini optimallashtirish tahlil hamda logistik modellashtirish vositalari yordamida sezilarli darajada soddalashtiriladi. Ushbu vositalar istalgan kompaniyaga to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish zahiralarni boshqarishni samarali optimallashtirish imkonini beradi.

Amerika to'qimachilik korxonalari zahiralarning ko'p kanalli nazorati texnologiyasi qo'llanilib, u an'anaviy do'konlar, onlayn marketpleyslar va ijtimoiy tarmoqlar platformalarini qamrab oluvchi bir nechta savdo kanallari bo'yicha zahiralarni muvofiqlashtirilgan tarzda boshqarishni ta'minlaydi.

Mazkur texnologiya barcha kanallar bo'yicha yuqori darajadagi muvofiqlashtirish va shaffoflikni, shu jumladan, talabga qarab turli hududlarda joylashgan zahiralarni o'rtasida tezkor tashish imkoniyatlarini ta'minlaydi. Bu ombor menejerlariga real vaqt rejimida zahiralarni darajasini kuzatib borish hamda talab va taklif bo'yicha aniq ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Zahiralarning ko'p kanalli nazorati mijozlar qoniqish darajasini oshiradi, zahiralarning yetishmovchiligi yoki ortiqcha tovarlar to'planib qolishi tavakkalini kamaytiradi hamda omborlar faoliyati samaradorligini oshiradi [13].

AQSh to'qimachilik tarmog'ida zahiralarni boshqarishda turli ombor operatsiyalarini avtomatlashtirish uchun robototexnika imkoniyatlaridan ham keng foydalanilmoqda. Robotlardan foydalanish komplektatsiya, qadoqlash va yuklab jo'natish, shuningdek, zahiralarni kuzatish va boshqarish jarayonlarini qamrab oladi. Ushbu texnologiyalar ombor samaradorligini oshiradi, qayta ishlash xarajatlarini kamaytiradi, operatsiyalarni optimallashtirish va xatoliklarni minimallashtirish hisobiga mijozlar qoniqishini yuksaltiradi, ishlab chiqarishdagi jarohatlanish xavfini kamaytiradi hamda xavfli yoki takrorlanuvchi vazifalarni avtomatlashtirish orqali xodimlar xavfsizligini ta'minlaydi.

Buyuk Britaniyada to'qimachilik sanoati rivojlanishning uzoq an'alariga ega. Hozirgi vaqtda to'qimachilik sanoatida ekologik toza materiallar va ishlab chiqarish usullariga qiziqish ortib bormoqda, bu esa zahiralarni boshqarish tizimlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. To'qimachilik korxonalari resurslardan yanada samarali foydalanish hisobiga zahiralarni hajmini kamaytirish usullarini izlamoqda. Zahiralarni optimallashtirishga sun'iy intellekt algoritmlariga asoslangan bashoratlash tizimlari imkon beradi. Ushbu tizimlar tarixiy ma'lumotlar va bozor trendlariga tayangan holda to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talabni prognoz qiladi hamda zahiralarni yanada aniq boshqarish va ortiqchalikning oldini olishga xizmat qiladi.

Hindiston dunyoning yetakchi kalava ip va mato ishlab chiqaruvchilari qatoriga kiradi hamda paxta yetishtirish bo'yicha Xitoydan keyin ikkinchi o'rinni egallab, uning hissasiga jahon umumiy ishlab chiqarish hajmining qariyb 21,5 % ulushi to'g'ri keladi. Hind to'qimachilik sanoati korxonalari ta'minot zanjirlarining samaradorligi va shaffofligini ta'minlash vositasi sifatida blokcheyn texnologiyasidan foydalanilmoqda. Ushbu texnologiya tashuvchilar, banklar va ta'minotchilarni o'z ichiga olgan barcha ishtirokchilarga axborotni xavfsiz almashish tizimiga ulanish imkonini beradi. Blokcheyn texnologiyasi zahiralarni kuzatib borish va boshqarish jarayonlarida xom ashyo, materiallar, tayyor mahsulotlar hamda ta'minot zanjirlari hisobini aniq yuritishga xizmat qiladi [9].

Hindiston to'qimachilik sanoatida yopiq siklli texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021-yilda yanada yopiq iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantirish maqsadida to'qimachilik chiqindilari sanoatini ratsionallashtirish, mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan hamda to'qimachilik chiqindilarining Hind bozorini uch bosqichli tashkil etishni nazarda tutuvchi "Hindiston uchun yopiq siklni saralash" loyihasi ishga tushirildi. Yopiq iqtisodiyot materiallarni qayta ishlash va takroran foydalanishga yo'naltirilgan bo'lib, bu chiqindilar miqdorini kamaytiradi va ishlab chiqarish zahiralari bo'lgan ehtiyojning qisqarishiga olib keladi, chunki mavjud materiallardan qayta foydalanish imkoniyati yaratiladi.

To'qimachilik sanoati Turkiyaning 200 dan ortiq mamlakatga mahsulot eksport qiluvchi eng muhim tarmoqlari qatoriga kiradi. Turkiya to'qimachilik tarmog'i korxonalari ishlab chiqarish zahiralarni boshqarishda innovatsiyalar global raqobat va iste'molchilar moyilliklarining tezkor o'zgarishi sharoitida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda (1-jadval).

1-jadval. Xorijiy mamlakatlar paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarni boshqarish usullari⁶

Zahiralarni boshqarish usullari	Usul qo'llaniladigan mamlakatlar
"Aqlli fabrika" texnologiyasi, robotlashtirilgan liniyalarni qo'llash	Xitoy, AQSh

⁶ Tadqiqotlarga asoslanib, muallif tomonidan tizimlashtirilgan.



Yadro sifatida uch o'lchamli avtomatlashtirilgan omborga ega sexlarning logistik tizimi	Xitoy, AQSh
Ombor uskunalarida intellektual datchiklarni qo'llash	Germaniya, Xitoy, AQSh, Buyuk Britaniya
Qayta ishlashning yopiq sikli, chiqindilarni qisqartirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish	Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, AQSh, Yaponiya, Hindiston, Turkiya
3D modellash	Fransiya, AQSh, Germaniya
Zahiralarning ko'p kanalli nazorati	AQSh
Blokcheyn texnologiyasi	Hindiston, Xitoy, AQSh, Turkiya
Moslashuvchan ta'minot zanjirlari	Turkiya, Xitoy, Germaniya

Shunday qilib, paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralari boshqarish bo'yicha xorijiy tajribalarni umumlashtirar ekanmiz, ta'kidlash joizki, eng ko'p innovatsion usullar Xitoy va AQSh kabi mamlakatlarning to'qimachilik klasterlarida qo'llaniladi. Jumladan, "aqlli fabrika" texnologiyasi, yadro sifatida uch o'lchamli avtomatlashtirilgan omborga ega sexlarning logistik tizimi, blokcheyn texnologiyasi hamda xom ashyonini qayta ishlashning yopiq sikli shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlar to'qimachilik korxonalarida zahiralarni boshqarishda barqaror rivojlanish tamoyillari, yopiq sikl yondashuvi, intellektual datchiklardan foydalanish, 3D modellash, blokcheyn va boshqa ko'plab raqamli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Ushbu ilg'or tajribalar O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarida zahiralarni boshqarish tizimini takomillashtirishda samarali qo'llanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralari boshqarish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tizimli tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlarda zahiralarni boshqarish jarayonida "aqlli fabrika" konsepsiyasi, uch o'lchamli avtomatlashtirilgan omborlar, raqamli egizaklar, 3D modellash, intellektual datchiklar, sun'iy intellekt hamda blokcheyn texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Xitoy va AQSh klasterlarida jarayonlarning yuqori darajada avtomatlashtirilishi logistika samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashga xizmat qilsa, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniyada yopiq siklli iqtisodiyot va ekologik barqarorlik tamoyillari asosida resurslardan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hindiston va Turkiyada esa blokcheyn hamda moslashuvchan ta'minot zanjirlari orqali shaffoflik va ishonchlilikni kuchaytirish ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Umuman olganda, xorijiy tajribalar ishlab chiqarish zahiralari boshqarishda raqamlashtirish va avtomatlashtirishning ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib, zahiralarning ortiqchaligi va yetishmovchiligini bartaraf etish, aylanma mablag'lardan samarali foydalanish hamda klasterlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarida zahiralarni boshqarish tizimini takomillashtirish uchun "aqlli fabrika" va avtomatlashtirilgan omborlarni joriy etish, raqamli egizaklar va 3D modellash asosida logistika jarayonlarini optimallashtirish, sun'iy intellekt yordamida talabni bashoratlash tizimlarini rivojlantirish, blokcheyn texnologiyasini ta'minot zanjiriga integratsiyalash, yopiq siklli iqtisodiyot tamoyillarini keng tatbiq etish hamda raqamli kompetensiyalarga ega kadrlar tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuvlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va milliy paxta-to'qimachilik klasterlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank Group. International Development, Poverty, & Sustainability. <https://www.worldbank.org/>
2. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/20222026_yillarga_mujallangan_yangi_uzbekistonning_taraqqiet_strategiyasi_tasdiqlandi
3. Кодацкий В. П. Прибыль. — М.: Финансы и статистика, 2021. — С. 85.
4. Ахмадов А. Ш. Повышение эффективности управления производственной стратегией в промышленных предприятиях // Экономика и предпринимательство. — 2019. — № 10(111). — С. 115–120.
5. Хромых Н. А. Экономический анализ оборотных активов предприятия. — М.: Русайнс, 2018. — С. 102.
6. Мунинова Н. М. Сегментарный анализ рыночного потенциала текстильной промышленности Узбекистана // Молодой ученый. — 2015. — № 12(92).
7. Зуева О. Н. Реверсивная логистика в управлении запасами // Известия Иркутской государственной экономической академии. — 2009. — № 1(63). — С. 107.
8. Малюк В. И. Производственный менеджмент. — М.: Юрайт, 2024. — С. 148.
9. Цзюньчи Д. Анализ жизненного цикла текстильных кластеров: на примере китайских текстильных предприятий провинции Чжэцзян // Научные исследования экономического факультета. Электронный журнал. — 2023. — Т. 15. — Вып. 2. — С. 58.



10. Муаллиф томонидан тузилган. Манба: Cheng Y., Peng J. Warehouse logistics in China at textile enterprises // IFAC-PapersOnLine. — 2022. — Vol. 50(1). — P. 12255.
11. Madрахимова G. R. Improving the Use of Investment in Improving the Efficiency of Light Industry Enterprises in Uzbekistan // International Journal of Research in Management & Business Studies (IJRMBS). — 2019. — Vol. 6, Issue 2 (April–June). — P. 32–35. ISSN: 2348-6503. <http://ijrmbs.com/vol6issue2/madrahimova.pdf>
12. Waller M. A., Fawcett S. E. Data Science, Predictive Analytics, and Big Data: A Revolution That Will Transform Supply Chain Design and Management // Journal of Business Logistics. — 2023. — Vol. 34(2). — P. 77.
13. Schmitt A. J., Singh M. Quantifying supply chain disruption risk using Monte Carlo and discrete-event simulation // Proceedings of the 2019 Winter Simulation Conference / eds. M. D. Rossetti, R. R. Hill, B. Johansson et al. — P. 1237.
14. Nasimov B. Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth // Muhandislik va iqtisodiyot. — 2025. — Vol. 3, No. 4.
15. Nasimov B. Improvement of production reserve management models in cotton-textile clusters: ERP-systems // Решение социальных проблем в управлении и экономике. — 2024. — Vol. 3, No. 12. — P. 131–134.
16. Madрахимова G. R. Analysis of the current status of the textile industry in the economy of Uzbekistan // Economics and Innovative Technologies. — 2020. — No. 1 (January–February). — P. 1–9. <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2020/i>
17. Nasimov B. Scientific-methodological bases of production resource management in cotton-textile clusters // Академические исследования в современной науке. — 2024. — Vol. 3, No. 52. — P. 66–71.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
